

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**RAXMONOV AZIMJON SATTOROVICH**

**TOG‘DAN O‘TUVCHI AVTOMOBIL YO‘LLARIDA FALOKATLI  
HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARINING HARAKAT  
XAVFSIZLIGINI OSHIRISH (QAMCHIQ DOVONI MISOLIDA)**

**05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

Raxmonov Azimjon Sattorovich Tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish (Qamchiq dovoni misolida)...	3
Рахмонов Азимжон Сатторович Повышение безопасности движения транспортных средств в аварийных ситуациях на горных автомобильных дорогах (на примере перевала Камчик).....	22
Rakhmonov Azimjon Sattorovich Improving the safety of vehicles in emergency situations on mountain roads (on the example of the Kamchik pass).....	42
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works .....	46

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**RAXMONOV AZIMJON SATTOROVICH**

**TOG'DAN O'TUVCHI AVTOMOBIL YO'LLARIDA FALOKATLI  
HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARINING HARA-KAT  
XAVFSIZLIGINI OSHIRISH (QAMCHIQ DOVONI MISOLIDA)**

**05.08.06 – G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3382 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga ("[www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)") joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Fayzullayev Erkin Zikrullayevich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Bazarov Baxtiyor Imamovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Muxitdinov Nuriddin Fatxiddinovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024- yil "19" aprel soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: [rectorat@tstu.uz](mailto:rectorat@tstu.uz), [tashiit@exat.uz](mailto:tashiit@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 147 bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: [rectorat@tstu.uz](mailto:rectorat@tstu.uz), [tashiit@exat.uz](mailto:tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil "04" aprel kuni tarqatildi.

(2024- yil "12" yanvardagi 11-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Riskulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**K.Z.Ziyayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

**A.A.Muxitdinov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda aholi va transport vositalari sonining ortib borishi, tog‘li yo‘llarda yo‘l transport hodisalarining ko‘payishi bilan transport vositalarining harakat xavfsizligini ta‘minlashga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda transport vositalaridan foydalanish oshib borgan sari, avtomobil - yo‘l - piyoda - muhit tizimida harakat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan masalalar yetakchi o‘rinni egallagan. Bu borada, jumladan, transport vositalari harakat xavfsizligini oshirish, yo‘l-transport hodisalari sonini kamaytirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda hamda avtotransport vositalaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda tog‘li yo‘llar o‘zining geografik joylashishi, dovonlardagi harakat xavfsizligi ta‘minlanganligi bo‘yicha bir-biridan ajralib turadi, tog‘li hududlardagi murakkab relief avtotransport harakati rejimi va xavfsizligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi hamda tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida avtotransport vositalarini xavfsiz harakatlanish tezliklarini ta‘minlash, falokatli holatlarda transport vositalarining xavfsizligini oshirish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transport hodisalarini kamaytirish va uning oqibatlaridan himoyalani sh darajasini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, yuk avtomobilining falokat(avariya) holatlarida xavfsiz to‘xtatish yo‘lakchalarining o‘rnatilish oraliq masofasini aniqlash, tog‘ hududida davomli qiyaliklardan tushishda transport vositalarining harakat xavfsizligini ta‘minlash kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l-transport hodisalari sonini kamaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va yo‘l transport hodisalarini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni olib borishni rag‘batlantiruvchi qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilangani xam ko‘rsatib turibdi. Jumladan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “... Rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish. Bunda, yo‘l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish, yo‘llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilarga munosib sharoitlarni yaratish”<sup>1</sup> bo‘yicha vazifalari alohida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifadir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi PQ–190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>2</sup>gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi PQ–3127-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>3</sup>gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 dekabrda 990-sonli yildagi “2018–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”<sup>4</sup>gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 19 maydagi 377-sonli “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>5</sup> gi qarori ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining III. “Energetika, energiya–resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tog‘li yo‘llarda transport vositalarining ekspluatatsiyasi, ularning harakat jarayonini modellashtirish va harakat xavfsizligiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan dunyoda bir qator olimlardan R.G.Elvinov, R.V. Nikolayeva, A.M.Badalyan, V.V.Chvanov, N.P.Ornatskiy, R.K.Axmedov, V.F.Babkov, A.R.Valentilovich, M.T. Alseitov, B. Sovetbekov, Ye.Y. Minenko, D.Y.Kuramshin, Voyevodin, Ye.V. Fomin, K.V. Pulyanova, A.M. Asxabov, A.S. Kashura, N.V. Golub, E.D. Moldaliyev, G.R. Lechishavili, V.F. Platonov, B.C. Ustimenko, G.K. Nazarov, G.B.Bezborodova, Y.Ye.Farobin, A.M.Ivanov V.Aliyev, S.K. Abduraxmanov, Shy Bassan, Ligang Vang, Rusdi Bin Rusli, Marco Montoya-Alcaraz, Alejandro Mungaray-Moctezuma, Julio Calderón-Ramírez, Leonel García, Cynthia Martinez-Lazcano, Zihao Wen, Hui Zhang, Ronghui Zhang, Nguen Txan Fong, Le Txi Kue An va boshqalar shug‘ullanishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.A.Mutalibov, O.U.Salimov, S.M.Kadirov, A.A. Muxitdinov, K.X.Azizov, A.A.Nazarov, B.I.Bazarov, Sh.P.Alimuxamedov, A.A.Shermuxamedov, J.R.Kulmuxamedov, N. Ilyosov, A.F. Shaxidov, I.S. Sadikov, M.M. Miraxmedov, A.X. Urokov, J.I. Sodiqov, B.Sottivoldiyev, E.Z.Fayzullayev, A.S.Xalmuxamedov Sh.K.Xakimov, A.M.Baboyev, M.S. Mirzabekov va boshqalar tomonidan tog‘li yo‘llarda transport vositalarining ekspluatatsiyasi va harakat xavfsizligi bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi PQ-3127-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 dekabrda 990-sonli yildagi “2018–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi qarori

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 19 maydagi 377-sonli “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori

o'tkazilgan. Bu tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, tog'li yo'l sharoitida transport vositalarining tormozlash tizimida nosozliklar bo'lganda, ularni to'xtatish uchun o'rnatiladigan falokatli holatlar uchun kirish yo'lining (FHUKY) yo'lining bo'ylama qiyaliklariga va transport vositalarining harakat tezligiga bog'liq ravishda o'rnatilish oraliq masofasi qiymatlarini aniqlashning ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent avtomobil-yo'llari institutining DITD №A-13-100 Qamchiq dovoni sharoitida neft mahsulotlarini tashish uchun avtopoyezdning oqilona turini tanlash (2006–2008), DITD №P-18.40 MAZ-642208-020 va KamAZ-6460-001 Istanbul–Fruehauf avtopoyezdlarining Qamchiq dovonida harakatlanayotganda tortish imkoniyatlari va tormoz tizimlarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilish (2007) bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining davomi sifatida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tog'dan o'tuvchi avtomobil yo'llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tog'dan o'tuvchi avtomobil yo'llarida transport vositalarining harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili;

hisob yo'li bilan davomli qiyaliklarda yuk avtomobilining falokat(avariya) holatlarida xavfsiz to'xtatish yo'lakchalarining o'rnatilish oraliq masofasini aniqlash uslubini ishlab chiqish;

MATLAB/Simulink immitatsion model asosida avtomobillarning falokatli(avariyal) harakatlanish holatlarida ularning kinetik energiyasini xavfsiz so'ndirishni ta'minlovchi kirish yo'lining uzunligi va qiyaligini aniqlash uslubini takomillashtirish;

nazariy tadqiqot natijalari ishonchliligini asoslash bo'yicha sinov uslubini ishlab chiqish va o'tkazish;

davomli qiyalikda pastga harakatlanishda avtopoyezdlarning yordamchi tormoz tizimlari samaradorligini eksperimental tahlil qilish;

tog' hududida davomli qiyaliklardan tushishda transport vositalarining harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida dovonda harakatlanayotgan transport vositalari qabul qilingan.

**Tadqiqotning predmeti** tog'li yo'llarning xavfli bo'laklarida transport vositalarining harakat xavfsizligi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik statistika va tahlil, matematik modellash, eksperimental tadqiqotlar, regression tahlil usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

g'ildirakning g'ildirashga qarshilik koeffitsiyentini avtomobil massasi va tezligiga empirik bog'liqligi asosida avtomobil harakatiga qarshilik yo'lagining uzunligini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

avtomobilning davomli qiyaliklarda harakatlanishida falokat (avariya) holatlarida xavfsiz to'xtatish yo'lakchalarining o'rnatilish oraliq masofasini aniqlash uslubi avtomobilning nishablikda harakatlanish matematik modeli orqali takomillashtirilgan;

avtomobillarning falokatli harakatlanish holatlarida kinetik energiyasini so'ndiruvchi qarshilik yo'lagi parametrlari asoslash usuli ishlab chiqilgan;

turli ob-havo sharoitlari uchun xavfli yo'l uchastkalarida avtomobil tezligining chegaraviy qiymatini aniqlash uslubi yo'lining bo'ylama nishabligini hisobga oluvchi koeffitsiyentlarini tanlash usuli orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tog'dan o'tuvchi avtomobil yo'llarida falokatli holatlarda harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha FHUKYni o'rnatilish oraliq masofalarini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan.

yo'lining relefiga qarab gravitatsion yoki katta qarshilikli falokatli holatlar uchun kirish yo'llari parametrlarini avtomobil yo'lining bo'ylama qiyaligi, transport vositalarining massasi, tezliklariga mos ravishda o'zgarishi qonuniyatlari aniqlangan;

eksperiment uslubi orqali yuqori qarshilikka ega materiallardan foydalanib FHUKY parametrlari aniqlangan;

davomli qiyalikda pastga harakatlanishda avtopoyezdlarning yordamchi tormoz tizimlarini eksperimental tahlil natijalariga asosan, ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

transport vositalarining Qamchiq dovonidagi yo'l va iqlim sharoitlariga mos holda xavfsiz harakatlanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi va ularning ishonchliligi jahondagi soha bo'yicha yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilgan natijalarga mos kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot bo'yicha olingan natijalarning ilmiy ahamiyati tog'dan o'tuvchi avtomobil yo'lining bo'ylama qiyaligi, transport vositalarining tezliklariga mos ravishda falokatli holatlar uchun kirish yo'lining o'rnatilish oraliq masofalarini, falokatli holatlar uchun kirish yo'lining parametrlarini aniqlash uslublari hamda yuk avtomobilining massasi va tezligini hisobga olib, eksperimental sinov yo'li bilan, cheklangan yotoq tipdagi falokatli holatlar uchun kirish yo'lining uzunligi va avtomobil g'ildiragining g'ildirashiga qarshilik koeffitsiyentini aniqlashning imperik tenglamalari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.,

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati Qamchiq dovonida transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish, transport vositalarining tormoz tizimi va tezligi bilan bog'liq bo'lgan yo'l-transport hodisalarini kamaytirish, ob-havo sharoitini hisobga olib intellektual tizimni qo'llash orqali xavfli yo'l bo'laklarida avtomobillarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlash va yo'l usti qurilmalarini qurishda sezilarli mablag'larni tejash bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

avtomobilning davomli qiyaliklarda harakatlanishida falokat (avariya) holatlarida xavfsiz to‘xtatish yo‘lakchalarining o‘rnatilish oraliq masofasini aniqlash uslubi “Qamchiqavtoyoyol” ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish unitar korxonasida joriy etilgan (Transport vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi №2/970-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada davomli qiyaliklarda yo‘lning nishabligi 5–12 % bo‘lganida xavfsiz to‘xtatish yo‘lakchalarining o‘rnatilish oraliq masofasi 250–800 metr oralig‘ida o‘zgarishi aniqlangan;

avtomobillarning falokatli harakatlanish holatlarida kinetik energiyasini so‘ndiruvchi qarshilik yo‘lagi parametrlari “Qamchiqavtoyoyol” ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish unitar korxonasida joriy etilgan (Transport vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi №2/970-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada transport vositasining xavfsiz to‘xtatish yo‘lakchalariga kirishdagi oniy tezligi 60–130 km/soat bo‘lganida xavfsiz to‘xtatish yo‘lakchalarining qiyaligi 10%–17% ga o‘zgarganda uning uzunligi 80–250 metrgacha o‘zgarishi aniqlangan;

g‘ildirakning g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyentini avtomobil massasi va tezligiga empirik bog‘liqligi asosida avtomobil harakatiga qarshilik yo‘lagining uzunligi qiymatlari “Qamchiqavtoyoyol” ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish unitar korxonasida joriy etilgan (Transport vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi №2/970-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mavjud avtomobil harakatiga qarshilik yo‘lagining uzunligini 3–4 barobarga kamaytirish va bitta falokatli holat uchun kirish yo‘lini qurishga ketadigan xarajatlarni o‘rtacha 59 493 950 so‘mga qisqartirish imkonini beradi;

turli ob-havo sharoitlari uchun xavfli yo‘l uchastkalarida avtomobil tezligining chegaraviy qiymatini aniqlash uslubi “Qamchiqavtoyoyol” ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish unitar korxonasida joriy etilgan (Transport vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi №2/970-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Qamchiq dovonidagi xavfli uchastkalarda xavfsiz harakatlanish tezligini ta‘minlash va tezligi bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarini 30% ga kamaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlari ma‘ruzalarda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, ulardan 6 tasi respublika va 3 tasi xorij jurnallarida e‘lon qilingan. Shuningdek, dasturiy hisoblash mahsulotlari uchun 2 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish (Qamchiq dovoni misolida) bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Ishning asosiy maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Ishning ilmiy yangiligi va tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida falokatli holatlarda transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish bo‘yicha tadqiqotning asosiy natijalari, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Shuningdek, dissertatsiya ishi natijalarining amaliyotga tatbiqi, mavzu bo‘yicha nashr etilgan ishlar va ularning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakat xavfsizligini tahlil qilish”** nomli **birinchi bobida** tog‘ sharoitida transport vositalarining xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganishga oid mavjud ilmiy ishlar sharhi keltirilgan.

Tog‘li yo‘llarda transport vositalarining ekspluatatsiyasi va harakat xavfsizligiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan dunyoda bir qator yetakchi olimlardan R.G.Elvinov, R.V.Nikolayeva, A.M.Badalyan, V.V.Chvanov, N.P.Ornatskiye, R.K.Axmedov, A.R.Valentilovich, M.T.Alseitov, B. Sovetbekov, Ye.Y. Minenko, D.Y.Kuramshin, Voyevodin, Ye.V.Fomin, K.V. Pulyanova, A.M.Asxabov, A.S.Kashura, N.V.Golub, E.D.Moldaliyev, G.R. Lechishavili, V.F.Platonov, B.C.Ustimenko, G.K.Nazarov, V.Aliyev, S.K. Abduraxmanov, Shy Bassan, Ligang Vang, Rusdi Bin Rusli, Marco Montoya-Alcaraz, Alejandro Mungaray-Moctezuma, Julio Calderón-Ramírez, Leonel García and Cynthia Martinez-Lazcano, Zihao Wen, Hui Zhang and Ronghui Zhang, Nguen Txan Fong, Le Txi Kue An va boshqalar shug‘ullanishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.A.Muxitdinov, A.A.Shermuxamedov, Q.H.Azizov, N.Ilyosov, A.F.Shaxidov, I.S.Sadikov, M.M.Miraxmedov, A.X. Urokov, J.I.Sodiqov, A.A.Nazarov, E.Z.Fayzullayev, Sh.K.Xakimov, A.M.Baboyev, M.S.Mirzabekov va boshqalar tomonidan tog‘li yo‘llarda transport vositalarining ekspluatatsiyasi va harakat xavfsizligi bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ushbu mualliflar tadqiqotlarida tog‘li yo‘llarda harakat xavfsizligini ta‘minlashda ob-havo sharoiti, yo‘l elementlari, avtomobil - haydovchi - yo‘l - muhit munosabatlari, tog‘li yo‘llardagi aholi punktlarida tezlik ko‘rsatkichlari, tonnelerde harakatni tashkil etish yoritilgan bo‘lsada, tog‘dan o‘tuvchi yo‘llarda turli sharoitlarda transport vositalarining xavfsiz harakatlanish tezligi va transport vositalarining tormozlash tizimida nosozliklar bo‘lganda falokatli holatlar uchun kirish yo‘lining o‘rnatilish oraliq masofasini aniqlash, yo‘lning tushish nishabliklarida transport vositalarining tormozlash tizimida nosozliklar bo‘lganida xavfsiz to‘xtatish uslublarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi.

Dissertatsiyaning **“Tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta‘minlashni nazariy tadqiqoti”** nomli **ikkinchi bobida** Qamchiq

dovonidagi avtomobil yo'llarida transport oqimi tezligini aniqlash va xavfli uchastkalardagi tezliklarni nazariy tadqiqoti Qamchiq dovonidagi yo'l-transport hodisalari, xavfli uchastkalarining topografik tahlili, xavfli yo'l bo'laklarida transport vositalarining harakatlanish kritik tezliklarini aniqlash, FHUKYdan foydalanib transport vositalarining harakat xavfsizligini oshirish, FHUKY turlari va Qamchiq dovonidagi mavjudlarining tahlili, FHUKYga qo'yilgan meyoriy talablar, hisob yo'li bilan davomli qiyaliklarda yuk avtomobilining falokat (avariya) holatlarida xavfsiz to'xtatish yo'llarining o'rnatilish oraliq masofasini aniqlash uslubini ishlab chiqish, MATLAB/Simulink imitatsion model asosida avtomobillarning falokatli(avariyal) harakatlanish holatlarida ularning kinetik energiyasini xavfsiz so'ndirishni ta'minlovchi kirish yo'lining uzunligi va qiyaligini aniqlash uslubini takomillashtirish masalalari ko'rilgan.

Qamchiq dovonida so'nggi uch yilda sodir bo'lgan YTH tahlili va xavfsizlik va halokatlilik koeffitsiyentlari uslublaridan foydalanib, yo'ning xavfli uchastkalari aniqlangan.


Qamchiq dovonida sodir bo'lgan YTH larning sabablari bo'yicha regression analiz qilindi:

Y – YTH soni; X<sub>1</sub> – tezlikni oshirish oqibatida sodir bo'lgan YTH; X<sub>2</sub> – haydovchilarni uxlab qolishi oqibatida sodir bo'lgan YTH; X<sub>3</sub> – ko'rinishni yetarli emasligi oqibatida sodir bo'lgan YTH; X<sub>4</sub> – tormoz tizimi bilan bog'liq YTH; X<sub>5</sub> – ob-havo sharoiti ta'siri oqibatida sodir bo'lgan YTH; X<sub>6</sub> – yo'ning bo'ylama nishabligi ta'sirida sodir bo'lgan YTH; X<sub>7</sub> – yo'ning radius egriligi ta'sirida sodir bo'lgan YTH.


$$Y = 0,6 X_1 + 0,2 X_2 + 0,26 X_3 + 0,3 X_4 + 0,295 X_5 + 0,37 X_6 + 0,42 X_7 \quad (1)$$

Statistik ma'lumotlar asosidagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tezlikni oshirish oqibatida Qamchiq dovonida eng ko'p YTH sodir bo'ladi. Tadqiqot natijalari transport vositalari tezligining oshishi va tormoz tizimining ishlamay qolishi, yo'ning bo'ylama nishabligi, yo'ning radius egriligi, ko'rinishning yetarli emasligi, ob-havo sharoitining ta'siri oqibatida sodir bo'lgan YTH larni kamaytirishga qaratiladi.

Noqulay ob-havo sharoitlarida ham yuqori tezlikda harakatlanish holatlari kuzatiladi va natijada yo'l-transport hodisasi yuzaga keladi. Bularni inobatga olib, bunday burilishlarda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun ob-havo sharoiti va qoplama holatini inobatga olgan holda harakatlanish tezligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Quyida berilayotgan matematik model noqulay ob-havo sharoitlarida yo'ning aylanma harakatli bo'laklari uchun xavfsiz harakatlanish tezliklarini aniqlaydi.



a



b

1-rasm. Xavfli yo‘l bo‘laklarida turli ob-havo sharoitida transport vositalarining kritik tezligini aniqlash algoritmi (a) va har bir holat uchun kritik tezliklar va burilish radiusi orasidagi bog‘liqlik grafiki (b)

Avtomobilning turg‘unligini yo‘qotilishi ag‘darilish, yon tomonga sirpanish va yetakchi g‘ildiraklarning shataksirashi kabi ko‘rinishlarda kuzatilishi mumkin. Ag‘darilish va yon tomonga sirpanish holatlari ag‘darilish bo‘yicha kritik tezlik va yon tomonga sirpanish bo‘yicha kritik tezliklari orqali ifodalanadi. Ilashish koeffitsiyenti quyidagicha qabul qilindi.

1-jadval

Yo‘l qoplamasining holati bo‘yicha ilashish koeffitsiyentlari

Ko‘rsatkich	Quruq yo‘l	Nam yo‘l	Qorli yo‘l	Muzlagan yo‘l
Ilashish koeffitsiyenti	0.75	0.4	0.25	0.12

Avtomobil yo‘llarida qo‘yilgan tezlikni chegaralovchi yo‘l belgilari turli ob-havo sharoitlaridagi xavfsiz harakatlanish tezliklarini ko‘rsatib bera olmaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli ob-havo sharoitlarida yo‘l qoplamasining holatiga qarab g‘ildiraklarning yo‘l bilan ilashish koeffitsiyenti turlicha bo‘ladi. Avtomobillar nazariyasidan ma‘lumki, avtomobillarning turg‘unligini yo‘qotishi bo‘yicha kritik tezlik (yonaki sirpanish bo‘yicha) yo‘lning burilish radiusiga va ilashish koeffitsiyentiga bog‘liq. Demak, avtomobillarning turli ob-havo sharoitlarida yo‘l qoplamasining turli holatlari va yo‘lning turli burilish radiuslari uchun avtomobillarning turg‘unligini yo‘qotish bo‘yicha kritik tezliklarini aniqlash, har bir yo‘l burilishidan oldin turli ob-havo sharoitlarida yo‘l qoplamasining holatini aniqlab beruvchi datchiklar va kritik tezliklarni hisoblab ekranga chiqarib beruvchi o‘zgaruvchan elektron tablolar qo‘llash orqali turli yo‘l burilishlarida va turli ob-havo sharoitlarida avtomobillarni xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

Davomli qiyaliklarda transport vositalari tormoz tizimi nosoz holatda bo‘lganida quyidagi kuchlar ta‘sirida harakatlanadi. Natijaviy harakatlantiruvchi kuch tenglamasi:

$$F_h = F_n - F_i - F_f - F_v, \quad (2)$$

$F_h$  –avtomobilni harakatlantiruvchi natijaviy kuch:

$$F_h = M_a j_a,$$

$$(3)$$

$j_a$  – avtomobilning chiziqli tezlanishi;  $M_a$  – avtomobilning massasi;

$F_v$  – avtomobilga ta'sir etuvchi havoning qarshilik kuchi:

$$F_v = K \cdot F \cdot V_a^2, \quad (4)$$

$K$  – havo qarshiligini yengish koeffitsiyenti;  $F$  – avtomobilning old tomonidan qaralgandagi yuzi;  $V_a$  – avtomobilning ko'rilayotgan ondagi tezligi.

$F_i$  – avtomobilning tezlanishga qarshilik kuchi (inersiya kuchi):

$$F_i = M_a \cdot j_a \cdot \delta_{ayl}, \quad (5)$$

$\delta_{ayl}$  – aylanib harakatlanuvchi massalar kuchining ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsiyenti.

$$\delta_{ayl} = 1 + \frac{I_M \cdot u_{TP}^2 + I_k}{G_a \cdot r^2} \cdot g \approx 1 + (\delta_1 \cdot u_{KII}^2 + \delta_2) \quad (6)$$

$$\delta_1 = \frac{I_M \cdot u_{21}^2}{G_a \cdot r^2} \cdot g \approx 0,04 \dots 0,06; \quad \delta_2 = \frac{I_k}{G_a \cdot r^2} \cdot g \approx 0,03 \dots 0,05;$$

$F_n$  – avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchi:

$$F_n = M_a \cdot g \cdot \sin a, \quad (7)$$

$g$  – erkin tushish tezlanishi ( $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ );  $a$  – qiyalik burchagi.

$F_f$  – avtomobil g'ildiraklarini gildirashga qarshilik kuchi;  $f$  – g'ildirashga qarshilik koeffitsiyenti:

$$F_f = f \cdot M_a \cdot g \cdot \cos a, \quad (8)$$

(2) tenglamani quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$M_a j_a = M_a \cdot g \cdot \sin a - f \cdot M_a \cdot g \cdot \cos a - M_a \cdot j_a \cdot \delta_{ayl} - K \cdot F \cdot V_a^2;$$

$$M_a j_a (1 + \delta_{ayl}) = M_a \cdot g \cdot \sin a - f \cdot M_a \cdot g \cdot \cos a - K \cdot F \cdot V_a^2,$$

bu yerdan avtomobilning chiziqli tezlanishi topilsa:

$$j_a = \frac{M_a \cdot g \cdot \sin a - f \cdot M_a \cdot g \cdot \cos a - K \cdot F \cdot V_a^2}{M_a (1 + \delta_{ayl})}, \quad (9)$$

Davomli qiyalikda harakatlanayotgan avtomobilning tezlanishini ifodalash mumkin:

$$j_a = \frac{V_k^2 - V_b^2}{2S}, \quad (10)$$

(10) ni (9) chi ifodaga olib borib qo'yilsa, quydagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{V_k^2 - V_b^2}{2S} = \frac{M_a \cdot g \cdot \sin a - f \cdot M_a \cdot g \cdot \cos a - K \cdot F \cdot V_a^2}{M_a (1 + \delta_{ayl})}, \quad (11)$$

Bu formula yordamida davomli qiyalikda tormoz tizimi ishdan chiqqan avtomobilning xavfsizligini ta'minlay olmaydigan kritik tezlikka erishishdagi bosib o'tgan masofa aniqlanadi:

$$S = \frac{M_a (1 + \delta_{ayl}) (V_k^2 - V_b^2)}{2(M_a \cdot g \cdot \sin a - f \cdot M_a \cdot g \cdot \cos a - K \cdot F \cdot V_a^2)}, \quad (12)$$

Davomli qiyalikda tormoz tizimi ishdan chiqqan avtomobilga ta'sir qilayotgan kuchlar ichida havoning qarshilik kuchi 60 km/soat tezligigacha qiymati  $0 < F_v \leq 5\%$  bo'lganligi hisobga olib (12) tenglama quyidagicha ifodalanadi:

$$S = \frac{M_a (1 + \delta_{ayl}) (V_k^2 - V_b^2)}{2M_a (g \cdot \sin a - f \cdot g \cdot \cos a)} = \frac{\frac{1 + \delta_{ayl}}{2g} (V_k^2 - V_b^2)}{(\sin a - f \cdot \cos a)}, \quad (13)$$

Yuk avtomobillari tezlanish bilan harakatlanganida aylanuvchi massalarni hisobga oluvchi koeffitsiyentini uzatmalar qutisining pog‘onasi ulanmagan holati uchun hisoblanadi:

$$\delta_{ayl} = 1 + \frac{I_M \cdot u_{TP}^2 + I_k}{G_a \cdot r^2} \cdot g \approx 1 + (\delta_1 \cdot u_{KII}^2 + \delta_2);$$

$$\delta_1 = \frac{I_M \cdot u_{21}^2}{G_a \cdot r^2} \cdot g \approx 0,04 \dots 0,06;$$

$$\delta_2 = \frac{I_k}{G_a \cdot r^2} \cdot g \approx 0,03 \dots 0,05;$$



$$\delta_{ayl} = 1 + 0,06 + 0,05 = 1,11;$$

$$k = \frac{1 + \delta_{ayl}}{2g} = \frac{1 + 1,11}{2 \cdot 9,81} \approx 10^{-1}. \quad (13)$$

formula quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$S = \frac{(V_k^2 - V_b^2)}{10(\sin a - f \cdot \cos a)}. \quad (14)$$

(14) formula orqali davomli qiyalikda tormoz tizimi ishdan chiqqan avtomobillarning xavfsizligini ta‘minlovchi FHUKYning o‘rnatilish oraliq masofasi aniqlanadi.




2-rasm. FHUKY o‘rnatilish oraliq masofasini aniqlash ketma-ketligi (a) va FHUKY o‘rnatilish oraliq masofasini yo‘lning bo‘ylama nishabligiga bog‘liqligi (b)

MATLAB/Simulink imitatsion modeli asosida avtomobillarning falokatli (avariyali) harakatlanish holatlarida ularning kinetik energiyasini xavfsiz so‘ndirishni ta‘minlovchi kirish yo‘lining uzunligi va qiyaligini aniqlash uslubi takomillashtirildi.

Tog‘li yo‘llarda harakatlanayotgan avtomobilda nosozliklar paydo bo‘lsa transport vositalari falokatli holatlar uchun kirish yo‘llariga kirishi natijasida transport vositasi tezligi kamayib yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lishini oldini oladi. Falokatli holatlar uchun kirish yo‘llari transport vositalarining faol xavfsizligini taminlashda o‘z o‘rniga ega.

Avtomobillarning falokatli (avariyali) harakatlanish holatlarida ularning kinetik energiyasini xavfsiz so‘ndirishni ta‘minlovchi kirish yo‘lining uzunligi va qiyaligini aniqlash **MatLab Simulink** dasturida amalga oshirildi.



3-rasm. FHUKYning parametrlarini aniqlovchi matematik modelning algoritmi

Tog‘li yo‘llarda transport vositalarining yo‘lining bo‘ylama qiyaligidan olgan kinetik energiyasini transport vositalariga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari hisobiga so‘ndirish orqali FHUKYning uzunligini aniqlash mumkin:

$$E_k = E_p, \quad (15)$$

$$\frac{M_a V_a^2}{2} = (F_f + F_n + F_b + F_i) S_L \cos \alpha, \quad (16)$$

$$S_L = \frac{M_a V_a^2}{2(M_a g \sin \alpha + k F V_a^2 + M_a \cdot j_a \cdot \delta_v + f M_a g \cos \alpha)}. \quad (17)$$

$S_L$  – falokatli holatlar uchun kirish yo‘li uzunligi, m;

$F_i$  – avtomobilning inersiya kuchi, N;

$F_b$  – avtomobilga havoning qarshilik kuchi, N;

$k$  – havo qarshiligini yengish koeffitsiyenti, kg/m<sup>3</sup>;

$F$  – avtomobilning old tomonidan qaralgandagi yuzasi, m<sup>2</sup>;

$V_a$  – avtomobilning tezligi, m/s;

$M_a$  – avtomobilning massasi, kg;

$F_n$  – avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchi, N;

$g$  – erkin tushish tezlanishi (9,81 m/s<sup>2</sup>);

$\alpha$  – falokatli holatlar uchun kirish yo‘lining qiyalik burchagi, %;

$F_f$  – avtomobil g‘ildiraklarini gildirashga qarshilik kuchi, N;


$f$  – g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyenti;

$\delta_v$  – aylanuvchi massalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent;

$j_a$  – avtomobilning sekinlanishi, m/s<sup>2</sup>.

FHUKY transport vositalarining faol xavfsizligini ta’minlashda o‘z o‘rniga ega. Tog‘li yo‘llarda harakatlanayotgan transport vositasining tormoz tizimida nosozliklar paydo bo‘lganda transport vositasini to‘xtatish va xavfsizligini ta’minlash uchun maxsus to‘xtatish yo‘lakchalari, falokatli holatlar uchun kirish yo‘llari o‘rnatiladi.

Gravitatsion FHUKYni matematik model yordamida hisob-kitob natijasi.




4-rasm. FHUKYning uzunligini qiyalik burchagiga bog'liqlik grafigi

FHUKYning bo'ylama qiyalik burchagi kamayib borishi bilan FHUKYning uzunligi ortib boradi (4-rasm).


FHUKYga kirishdagi avtomobil tezligi 50, 60, 70, 80, 90, 100, 110 km/soat bo'lganidagi FHUKYning uzunligini uning qiyalik burchagiga bog'liq ravishda o'zgarishi 5-rasmda keltirilgan.

Avtomobilning tezligi o'zgarishi bilan FHUKY yo'lining bo'ylama qiyalik burchagiga bog'liq ravishda FHUKY yo'lining uzunligi ham turlicha o'zgarib boradi (5-rasm).


Yo'ning bo'ylama nishabligi 5, 6, 7, 8, 9, 11 va 12% bo'lganida FHUKYning uzunligi avtomobil kirish tezligiga bog'liqligi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. FHUKYning avtomobil kirish tezligiga bog'liqligi



5-rasm. Avtomobil tezligi turlicha bo'lganda FHUKYning uzunligini uning qiyalik burchagiga bog'liqligi kamayib borishi bilan




7-rasm. Avtomobil tezligi FHUKY uzunligi va qiyaligi orasidagi bog'liqligining 3D ko'rinishi


Avtomobilning FHUKYga kirish tezligi o'zgarishi bilan FHUKYning bo'ylama qiyalik burchagiga bog'liq ravishda FHUKYning uzunligi ham turlicha o'zgarib boradi (6-rasm).

3D ko'rinishda FHUKY uzunligiga kirishdagi avtomobil tezligi, FHUKY uzunligi va uning qiyalik burchagi orasidagi bog'lanish grafigi 5-rasmda keltirilgan.

Cheklangan yotoq gorizontall tipdagi FHUKY uzunligini yo'l qoplamasi qarshiligiga bog'liqligi 8-rasmda keltirilgan. Yo'l qoplamasining qarshiligini oshirish orqali FHUKYni uzunligini kamaytirish mumkin. Bu bog'liklikdan foydalanib yo'l qoplamasining o'zgartirish orqali yo'l cheti relefiga mos ravishda FHUKYning zarur bo'lgan uzunligini tanlash imkoniyati paydo bo'ladi.



a



b

8-rasm. FHUKYning uzunligini yo‘l qoplamasining qarshiligiga a) va FHUKYlarining uzunligini avtomobilning oniy tezligiga bog‘liqligi b)

Transport vositalari harakat xavfsizligini ta‘minlashda yo‘l cheti relefiga mos ravishda FHUKYning gravitatsion, yuqori qarshilikli va aralash tiplaridan foydalanish mumkin. Aralash tipdagi FHUKYning uzunligi ( $S_1$ ), gravitatsion FHUKYning uzunligi ( $S_2$ ) va cheklangan yotoq FHUKYning uzunligi ( $S_3$ ) orqali aniqlanadi.

$$\frac{1}{S_1} = \frac{1}{S_2} + \frac{1}{S_3}. \quad (18)$$

Dissertatsiyaning “**Transport vositalarining harakat jarayonini eksperimental o‘rganish va tog‘dan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish**” nomli **uchinchi bobida** Qamchiq dovonidagi yo‘llarda transport oqimi tezligi va xavfli uchastkalardagi tezliklarni eksperimental tahlil orqali aniqlandi. Transport vositalarini o‘rtacha tezligini eksperimental aniqlashda Izves kameralarlaridan foydalanildi. A-373 “M-39 avtoyo‘li-Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 3%, 5%, 6%, 7% li nishabliklarida transport vositalarining harakatlanish tezliklari tadqiq qilindi.

KamAZ 6460-001, Ford-Kargo 1827, MAZ-642208-020, MB 1838, avtopoyezdlarda “Istanbul-fruehauf” yarim tirkamasi bilan yordamchi tormoz tizimining samaradorligi bo‘yicha eksperiment sinovlari o‘tkazildi.

